

## Yil avvalidagi ilmiy-amaliy seminar

“Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasida professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, iqtidorli talabalar joriy yilning 16-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 10 iyundagi PF-6024-son va “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli Farmonlari hamda va “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-oktyabrdagi PQ-4486-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish hamda suv xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash, o‘quv muassasalari bilan suv xo‘jaligi tashkilotlari, sohaga aloqador boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar o‘rtasida o‘rnatilgan aloqa tizimini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining Axborot-tahlil va resurs markazi bilan hamkorlikda amaliy - ilmiy seminar tashkil etildi.



Seminarda, “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasida mudiri t.f.d., prof. A.Arifjanov boshchiligida kafedraning barcha professor-o‘qituvchilari, kafedra qoshida tashkil etilgan “Evrika” va “Hydroleaders” iqtidorli talabalar klublari faol talabalari suv xo‘jaligini raqamlashtirish va amaliy texnologiyalarning hozirgi muammolarning va ularni amalga oshirish mavzulari doirasida taqdimot qildilar. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining Axborot-tahlil va resurs markazida suv xo‘jaligini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar borasida markaz direktori Sh.M.Qurbonov hamda yetakchi mutaxassis I.Ro‘zievlar taqdimot qildilar. Qizg‘in bahs munozaralardan so‘ng “Evrika” va “Hydroleaders” iqtidorli talabalar klublari faol talabalari o‘zlarining suv xo‘jaligi tizimida qo‘llash mumkin bo‘lgan g‘oya va ishlanmalarini amalda namoyish etdi. Seminar yakunida tomonlar TIQXMMI “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasida va vazirlikning Axborot-tahlil va resurs markazida o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni amalga oshirish to‘g‘risida shartnoma loyihasi va yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**